

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi

Qo`qon DU Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt kafedrasi dotsenti, PhD

Orcid id: 0009-0005-7173-1008

xakimovayoqutxon05@gmail.com

Tel: +998885570090

Tursunova Saida Soliyevna

Qo`qon davlat universiteti Ta'limda axborot texnologiyalari

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida interfaol o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi hamda ijodiy faolligini rivojlantirishda innovatsion va interfaol metodlarning o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida didaktik o'yinlar, muammoli topshiriqlar, savol-javob, matn va rasm ustida ishlash kabi usullardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada zamonaviy o'qituvchining kreativligi, pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kreativ fikrlash, mustaqil fikrlash, didaktik o'yinlar, ta'lim jarayoni, pedagogik mahorat, ijodiy faoliyat, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi faolligi.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. o'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi.

Ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amarga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'lim ta'limda, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash ehtiyoj muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik—lotincha so'z bo'lib, “ijod” yoki “yo'q narsadan yaratish” kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik—shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jixati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra, kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. o'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. o'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi: - Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda “bir xillik”dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqitirish; - o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta samara beradi. Didaktik o'yinlar bolada o'qish motivini rivojlantirishga yordam beradi. o'yinsiz aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas, o'yin jarayonida bolada muomala madaniyati shakllanadi. Didaktik o'yin jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildirib boshlaydi. Masalan: “Matndan ortiqchasini top” o'yinida. o'quvchi matnni o'qiydi matn, tahlil qiladi. Matn tahlil qilayotganida mustaqil fikrlab, ortiqcha gapni topib uni olib tashlaydi. Shu joyda

mustaqil ishlaydi, xulosa chiqaradi. Yana darslikdagi rasm ustida ishlashda o'quvchilarni mustaqil fikrlashda o'rgatadi. Rasmni kuzatadi fikrini bildiradi, savol javobda ishtirok etadi, rasmga qarab hikoya tuzadi, o'z fikrini bayon etadi. "Meni tushun" o'yinida o'quvchiga qog'ozda yozilgan so'z ko'rsatiladi yoki rasm ko'rsatiladi. o'quvchi o'sha so'zni o'qib shu so'zni sarlavha qilib mustaqil matn tuzadi. Rasm ko'rsatilsa, shu rasmga qarab ham matn tuzadi. Boshlang'ich sinf ona tili, o'qish, matematika darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning imkoniyatlari keng va undan foydalanish oqilona samara beradi. Matn ustida ishlashga yo'llash mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng imkoniyatli usullardan biridir. Darsliklarda berilgan hikoya, she'rlarni o'qib o'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javoblar ham yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plabyaxshi samara beradi. Masalan: "Sizga qaysi qahramon yoqdi?" "Siz shu hikoyada kimni o'rnida bo'lishni istar edingiz?" kabi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bolada mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda kitob katta rol o'ynaydi. Mustaqil fikrlash malakasini ona tili, o'qish darslarida emas, balki matematika darslarida ham shakllantirish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika darslarida fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun darslik bilan ishlash, darsda o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar, muammoli, yarim izlanishli topshiriqlar o'quvchilarga berish juda ham yaxshi natijalar beradi. Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlash malakasini shakllantirib rivojlanishning samarali yo'li o'quvchining o'zi masalani mustaqil o'qib, o'zi tahlil qilib, o'zi yechishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 son Farmoni. — Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. — Toshkent, 2020-yil 5-oktabr.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Nihol, 2013.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: Sano-standart, 2015.
7. Tolipov O.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006.
8. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2004.
9. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. — Toshkent, 2001.